



Buyuk Sohibqiron saltanatining qudrati

9-APREL – AMIR TEMUR TAVALLUD TOPGAN KUN

Qunduz NISHONBOYEVA,
“San’atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrası professori v.b,
tarix fanlari nomzodi

Bugungi tezkor va turfa madaniyatlar to‘qnashuvi jara-
yonida Amir Temur shaxsi, tobora Vatan va millat timsoliga
aylanib bormoqda. Amir Temur nomi, siymosi xalqimizni
birlashtirishda, jipslashtirishda, oqibatli bo‘lishida, madaniy-
ma’rifiy ildizlarimizni chuqur anglashda, qudratli kelaja-
gimizni qurishda, bizga kuch-quvvat va shijoat bag‘ishlab
bormoqda. Buyuk ajdodimizning eng muhim fazilatlaridan
biri shuki, u bundan olti asr avval hech qanday davlatning
qo‘shnilari bilan o‘zaro yaxshi aloqalari, manfaatli
hamkorligisiz yorqin istiqboli bo‘lmasligini teran anglagan.
Shu sababli, sohibqiron Yevropa va Osiyoni bog‘lashga xizmat
qilgan va ulkan ishlarni amalga oshirgan. Bir tomondan Xitoy,
Hindiston, bir tomondan Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa
davlatlar bilan aloqalar o‘rnatgan va shu munosabatlarni
mustahkamlashga intilgan. Bu borada, bizni xushnud etadigan
jihatlardan biri, Amir Temurning bashariyat oldidagi o‘lmas
xizmatlarini ma’rifatli jahon munosib baholayotganligidir.

Davomi 2-beida



*O‘lsa o‘zi o‘lar, so‘zi o‘lmaydi,
Hamisha barhayot nasl shoirlar.
Haqiqiy shoirning qabri bo‘lmaydi,
Yurakka ko‘milar asl shoirlar.*

Muhammad YUSUF

O‘zbek adabiyotining yetuk namoyandasi Muhammad Yusuf
o‘zining she‘rlari orqali, xalq mehri, e‘tiboriga sazovor bo‘lgan. U
samimiy, dilkash, vatanparvarlik kabi insoniy tuyg‘ularni she‘r
ohangiga solib, kitobxonlar orasida ajoyib qiziqish uyg‘otgan.



Yurakka ko‘milar asl shoirlar

Adabiyot, she‘riyat insonning ruhiy olami hamda ichki
dunyosini so‘z bilan ochib beradigan san’at turi hisolanadi.
Shoir ijodida metofora, epitet, tashbeh kabi badiiy
vositalardan mohirona foydalangan. Uning asarlarida
an’anaviy aruz vazni bilan bir qatorda erkin uslubdan ham
foydalanilgan. Muhammad Yusufning she‘rlarida kishini
hayajonga soladigan ohangdor va qisqa o‘qilishi bilan bir
qatorda xotiramizda qoladigan so‘zlar ipga tizilgandek,
terilgan.

Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon vilo-
yatining Marhamat tumanida tug‘ilgan. Toshkent davlat
universitetining filologiya fakultetini tamomlagan.

Malika NABIYEVA,
“Madaniyat va san’at
muassasalarini
tashkil etish hamda
boshqarish”
ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich talabasi

Davomi 5-beida

Bugungi sonda: Sohibqiron saltanatida san’at va madaniyatning o‘rni

Amir Temur maqom kuylarini ting-
lashni, muayyan ma’noli va tarbiya
quvvatiga ega bo‘lgan tomoshalarni
xush ko‘rgan. San’at asarlari, tomosha
va bayramlar aholi va xalqlarni bir-
lashtirishini istagan.

Talabalarning teatrlarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish

Yoshlarning sevimli aktyorlari, bastakor-
lari yoki qo‘shiqchilari bilan yaqindan
muloqot qilish, ularning ijodiy jarayonlari
haqida bilish yoshlarga ilhom man-
bai bo‘lib xizmat qiladi.

Qo‘shiqlari boqiylikka daxldor

“Mehr nuri yog‘ar doim yuzingizdan, ustozlar,
Yursam deymen, bu tabbarruk izingizdan, ustozlar.
Chin insonlik kitobiga baxtu hikmat bitibsi,
Odob ila bilim oldim so‘zingizdan, ustozlar”, satrlari
qulog‘imizga qo‘shiq bo‘lib quyulgan. Bunday she‘r va
qo‘shiqlar yashar ekan, demak, el sevgan adib
va shoirning o‘zi ham barhayot!

Ilk o‘zbek teatri aktrisalardan biri – Ma’suma Qoriyeva

Abdulhamid
Cho‘lpon uning
iste’dodidan
ta’sirlanib, “O‘zbek
teatri malikasi”, deb
she‘r yozgan.

Buyuk Sohibqiron saltanatining qudrati

➡ Boshlanishi 1- betda

Bugun yurtimizda va xorijiy mamlakatlarda Amir Temur va Temuriylar davri haqida ko'plab kitoblar nashr etilmoqda. Dunyoning ellikdan ortiq mamlakatlarida temurshunos olimlar faoliyat ko'rsatmoqdalar. O'tgan olti yuz yil mobaynida Amir Temurga bag'ishlab yaratilgan jiddiy asarlar soni Yevropa tillarida 500 dan ziyod, sharq tillarida qariyb mingdan ortig'ini tashkil etadi. Amir Temur va uning saltanatini boshqarish borasidagi adolatli siyosatini ifodalovchi asarlar ko'p yozilgan. Ular orasida alohida yoshlarimizga tavsiya etadigan asarlar o'z davrida Amir Temur bilan hamsuhbat bo'lgan, uning turli yurishlarida qatnashgan mualiflarning asarlari bo'lib, bular: Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Rui Gonzales de Klavixoning Kundaliklari, Ibn Arabshoxning "Temur tarixida taqdir ajoyibotlari", Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarlaridir.

Shuning bilan bir qatorda bugun mamnuniyat bilan aytish mumkinki, bugungi yoshlar emin erkin "Temur tuzuklari", "Temur haqida xotiralar", "Tuzuki temuriy" deb nomlangan ma'naviy merosimiz durdonasi bo'lgan bu qimmatbaho asarni o'qib, undagi purma'no hikmatlardan bahramand bo'lishlari mumkin.

Bugungi avlod shuni ham unutmazligi kerakki, Amir Temur davrida ham shaxsiy hayot bilan jamiyat, jamiyatdagi urush va tinchlik, fuqarolar o'rtasidagi ahillik va ziddiyat,

o'ziga xos turmush tarzi kabi ko'pgina jarayonlar bo'lganki, bu jarayonlarni boshqarish katta kuch, bilim hamda donishmandlikni, mahoratni talab qilgan. Bu jarayonlarga xos o'zaro munosabatlarni teran idrok etmasdan turib, buyuk davlat barpo etish mushkul edi. Amir Temurning bunday murakkab davrda davlatchilikka qarashlari va boshqaruvi o'ziga xos falsafiy ta'limotga asoslangan bo'lib, ul zot o'zidan oldin o'tgan hukmdor-u sarkardalar, payg'ambar-u halifalar, alloma va pirlar, olimlar-u donishmandlar tajribasidan, diniy ta'limotlar, fan va madaniyat yutuqlaridan yaxshigina xabardor bo'lgan. Amir Temur ta'kidlagan o'n ikki tamoyilni tahlil qilar ekanmiz, Amirning buyuk siyosatchi hamda faylasuf ekanligiga ishonch hosil qilamiz.

"Temur tuzuklari" asarida odob va axloq meyorlari markaziy o'rinni egallaydi. Adolat, so'z va amaliyot birligi, do'st va dushmanlik, botirlik va qo'rqqoqlik, manmanlik va kamtarlik, boylik va kambag'allik, mardlik va nomardlik kabi axloqiy xislatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Temur tuzuklari va yozib qoldirilgan boshqa manbalaridan ma'lum bo'ladiki, Amir Temur o'rinsiz g'azablanib muomala qilmagan. Uning fikricha, g'azab va qattiqqo'llik bilan qilingan muomala Tangri Taolo g'azabiga duchor bo'lish, o'z holini tang qilishdir. Amir Temur so'z bilan dushmani bo'ysundirishni afzal ko'rgan. Zero, "millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir", "kuch adolatdadir", "adovat emas, adolat yengadi", "bir kunlik adolat yuz kunlik toat-ibodatdan afzal", kabi yuksak ma'naviyatga oid



fikrlarni Amir Temur o'rtaga tashlaganki, bu fikrlar abadiy o'chmasdir.

Amir Temur barchaga nasihat qilib aytadiki: "Ulamo bilan suhbatda bo'lib, pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpindim, bularning himmatlaridan ulush tilab, muborak nafaslari bilan duo fotiha berishlarini iltimos qildim". Yana bir joyda "...Hech kimga g'azab bilan qattiq muomalada bo'lmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang etmasin deb". "...raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim". "Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarni esa, o'z yomonliklariga topshirdim. Kim menga do'stlik qilsa qadrladim, do'stlik qadrini unutmadim va unga muruvvat, ehson, izzatu ikrom ko'rsatdim".

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mehr-oqibat va insoniylik arzon dunyoda yashayotgan bir davrimizda, insoniyatning eng ulug' daholaridan biri, Amir Temur tarixiy obrazi, tarixiy siymosini yaratishga juda katta mehr va ma'suliyat bilan yondashib, yoshlarimiz qalbidan o'rin olishlariga yordam bermoq kerak.

SOHIBQIRON SALTANATIDA SAN'AT VA MADANIYATNING O'RNI

O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin egallaydigan, Sharq Renessansining shonli davrlariga tamal toshini qo'yan bir zot borki, u ham bo'lsa butun jahonga mashhur hazrati Sohibqironidir. Tobora rivojlanib borayotgan Yangi O'zbekistonning tarixini, uning madaniyatini yanada teranroq kashf etmoqchi bo'lgan har qanday inson buyuk hukmdorning faoliyatini o'rganmasdan o'z maqsadiga erisha olmaydi, nazarimda.

Sohibqiron Amir Temur o'z mamlakatini jahon sahnasiga olib chiqdi va bu Temuriylar Renessansi, Ikkinchi uyg'onish davri g'oyasi hamda xalqimizning bunyodkorlik faoliyatiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Markazlashgan qudratli davlat va qonun ustuvor bo'lgan adaolatli jamiyat qurishga intilish Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodir davrida nafaqat mamlakat mustaqilligini ta'minlash, balki qudratli davlat barpo etish, iqtisodiyot, madaniyat, san'at va ilm-fan sohalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov 1993-yil 31-avgust kuni Toshkentda Amir Temur haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanada, biz orzu qilgan buyuk davlatni bunyod qilish barchamizdan mustahkam iroda, imyon-e'tiqod, milliy g'urur tuyg'usi va buyuk ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy merosga ega bo'lishimizni talab qilishi haqida so'z yuritgan edilar. Binobarin, tariximizda mashhur jahongirlar juda ko'p o'tgan. Lekin Amir Temurdek buyuk sarkarda, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat homiysi, bugungacha xalqimiz dahosining timsoli, ma'naviy qudratimizning ramzi bo'lib kelmoqda.

1996-yilda Yevropaning qoq markazi ma'rifat, ilm-fan, san'at va abadiy go'zallik shahri bo'lmish Parijda "Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi" haftaligi o'tkazilishi Amir Temur davlatining jahon sivilizatsiyasida tutgan o'rnini belgilab beradi. Temuriylar davri haqiqatdan ham ilm-fan, madaniyat va maorifning behad ravnaq topishini taminlagan Sharq uyg'onish davri edi.

Bilamizki, Temur davlatining qurilishi va harbiy qudrati asrlar davomida Sharq va G'arb davlatlariga o'rnak bo'lib kelmoqda. Ammo yana shuni takidlash joizki, Temuriylar davridagi madaniyat, ilm-fan,

me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa va she'riyat yanada rivoj topdi. Shuningdek, buyuk Sohibqironning madaniyat va din ahliga ko'rsatgan cheksiz mehr-muruvvati g'oyat ibratlidir. Amir Temur ijtimoiy faoliyatining sermahsul natijalari, ayniqsa, madaniyat va ilm-fan sohalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Adabiyot va she'riyat, amaliy san'at, musiqa va tomosha san'ati saltanatda alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, o'zbek xalqi musiqasi bilan birga harbiy-rasmiy musiqa turlari, mumtoz maqom san'ati, mintaqaning boshqa turkiy hamda arabzabon, forsiy xalqlarining musiqaviy folklori, bastakorlarning o'ziga xos ijodi ham rivoj topdi.

Amir Temur olimlar, ulamolar, shoirlar va san'atkorlarni o'z himoyasiga olar ularga g'amxo'rlik qilardi. Darhaqiqat, o'zbek davlatchiligida san'at ahliga bo'lgan e'tibori o'sha davrlardayoq shakllanib ulgurgan desak, to'g'ri bo'ladi. Balki shuning uchun ham, o'sha davrda, milliy mumtoz san'atimiz gultoji bo'lgan monumental maqomlar tizimi "Shashmaqom"ning shakllanishi mantiqiy nihoyasiga yetgandir. Bilamizki, XIII-XV asrlar Nizomiy Ganjaviy, Husrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi shoirlar tomonidan barcha turkiy xalqlar adabiyotini yuksakka ko'targanlar. Temuriylar davridan boshlab esa bu jarayonga mahalliy xislatlar ta'sir eta boshlagan. Natijada yaxlit tizimdan muayyan darajada ajralgan, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan turkum asarlar shakllana boshlagan. Birlamchi tizimdan farqli o'laroq, ularda tuzilish kompozitsiya jihatidan hamda soniga ko'ra erkinlik ustuvor bo'ladi. Shu alfozda 12 ta arab maqomi, 12 ta uyg'ur maqomi, 7 ta eron dastgohi, 7 ta ozarbayjon mug'omi, 6 ta o'zbek va tojik maqomi yuzaga keldi. Bu turkumlar ham o'z navbatida mahalliy musiqiy sheva ta'sirida

yangi mukammal turkumlar yaratilishiga turtki bo'ldi. Shu tariqa o'zbek zaminida Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, turli-tuman ko'p qismli cholg'u asarlari yuzaga keldi.

Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"siga, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur asarlariga ishlangan bir qancha miniatyuralarda ham sozandalar, katta va kichik cholg'u jamoalari aks etgan. Shuningdek, bu davrda cholg'u, bastakorlik, musiqa tarixi va nazariyasi kabi yo'nalishlar bilan birga raqs san'ati, ayniqsa, erkaklar ijro etadigan raqslar taraqqiy etadi. Tarixiy ma'lumotlarda san'atkorlar orasida ayol sozanda, raqqosalar bo'lib, ular bayramlarda, namoyishlar va marosimlarda qatnashganligi haqida ham qator ma'lumotlar uchraydi.

Amir Temur maqom kuylarini tinglashni, muayyan ma'noli va tarbiya quvvatiga ega bo'lgan tomoshalarni xush ko'rgan. San'at asarlari, tomosha va bayramlar aholi va xalqlarni birlashtirishini istagan. Amir Temur buyuk davlatning hukmdori sifatida madaniyatga e'tibori yuksakligi tahsinga sazovor, albatta. Taniqli fransuz olimi Marsel Brion ham Amir Temur davlati tarixini tadqiq qilish davomida buyuk Sohibqironning madaniyatni cheksiz hurmat qilgani va ilm-fan muammolariga chuqur yondashganini aytib o'tadi

XIX asrning mashhur sharqshunosi, vengriyalik olim Herman Vamberi Amir Temur haqida shunday deydi: "Amir Temur hukmronligi, shak-shubhasiz, Oks-(Amudaryo)ning narigi tomonidagi mo'jaz yer uchun ajoyib davrni tashkil etdi va turkiy xalqqa shunday quyosh ato etdiki, uning nurlaridan bugungi kunda ham ko'plab qabilalar bahramand bo'lmoqdalar". Darhaqiqat, shonli tariximizning zabardast vakili bo'lmish Amir Temur va uning islohotlari haqida qancha o'rgansak shuncha kam. Bugun mustaqil davlatimizda ham aynan o'sha islohotlarning kurtaklarini kuzatishimiz mumkin. Inson qalbining kaliti bo'lmish san'at va madaniyatga e'tibor kuchayib borayotganini anglab olish mushkul emas. Shunday ekan, yaratilayotgan



E'zoza KARIMOVA,
Madaniyashunoslik
mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

sharoitlardan oqilona foydalanish, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, tomirlarimizda shunday ulug' bobolarimizning qoni oqar ekan, munosib vorislari bo'lish, yuksak maqsadlar sari intilib yashash barchamizning ezuq burchimizdir. Fransuz tilida nashr etilgan "Temur tuzuklari" kitobiga yozilgan so'zboshida Kornelning "Sid" nomli tragediyasidan "Nimadir yetilishi uchun vaqt kerak" degan ibratli so'zni aytib o'tadi.

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurishda – avvalo, buyuk tariximizning shonli solnomasidan, bobolarimizning boshlab bergan ulug' yo'lidan borish yuksak shon-sharaftir. Amir Temurdek jahon taraqqiyotiga katta hissa qo'shib, bashariyatni yaxshilikka da'vat etgan bobolarimizni biz yoshlar ruhan his qilib, undan dalda olamiz. Kelajagimizning yorug' istiqbolini tuyamiz.

Yangi O'zbekistonning madaniyati va san'ati bamisoli temuriylar davrida gullab-yashnagani kabi, Yangi O'zbekiston tarixida ham zarvorli sahifa qoldirishiga ishonamiz. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda: "Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi".

Talabalarni teatrga qiziqtirish muammolari

Zohidjon
JUMANAZAROV,
"Madaniyat va san'at
sohasi menejmenti"
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Sun'iy intellekt barcha sohaga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bir paytda yoshlarning ma'naviy va madaniy intellekt yuksak sajiyasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yoshlarning ta'lim davri urbanizatsiyasi insonning dunyoqarashi shakllanadigan, estetik did va ma'naviy o'zgarishlarga sabab bo'ladigan davrdir. Shu bois, san'at va madaniyatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan teatrlarga talabalar e'tiborini kuchaytirish, yoshlarning ma'naviy barkamolligiga xizmat qiluvchi muhim omil bo'lib, ularning hayotga bo'lgan munosabatini o'zgartirishda, ijtimoiy mas'uliyatni his qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Teatr azaldan insoniyat ma'naviy hayotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. U hayotning sahnadagi ko'zgusi sifatida insoniyatning qadimiy muammolari va hayot haqiqatlarini ifodalaydi. Ayniqsa, yoshlar uchun teatrlarga muntazam tashrif buyurish nafaqat dam olish va zavqlanish, balki ularning fikr doirasini kengaytirish, ichki dunyosini boyitish, go'zallikni his qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bejizga Jaloliddin Rumiy "Ma'naviyat – qalbimizni yorituvchi va o'zimizga boshqa nuqtayi nazardan qarashga yordam beruvchi nurdur", deya ta'rif bergan.

Bugungi kunda teatr repertuarlaridagi spektakllarning tomoshabinga ishonchsiz bo'lib qolishi yoki bitta spektaklning doimiy ravishda sahnalashtirilishi yoshlarning ijtimoiy tarmoq va media mahsulotlariga bo'lgan talabini kuchaytirib yubordi. Natijada, ularning teatrlarga va jonli san'at tadbirlariga bo'lgan e'tibori sezilarli darajada susayishiga ta'sir qildi. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, O'zbekiston xalq artisti, mohir rejissyor va aktyor, talabchan ustoz va mehribon murabbiy Bahodir



Yo'ldoshev "Teatrlarning shakl-u shamoyili sovet tuzumidan qolib ketgan. Biz boshqa zamonda yashayapmiz. Hozir biz umuman boshqa odamlarmiz. Teatr zamon o'zgarganini birinchilardan bo'lib his qilishi kerak. Agar unday bo'lmasa, unda uning hech kimga keragi yo'q" deb ta'kidlaydi. Shu sababli, talabalar orasida teatrlarga bo'lgan qiziqishni uyg'otish hamda uni mustahkamlash uchun keng ko'lamli

chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb masala hisoblanadi.

Talabalar e'tiborini teatrlarga qaratishning birinchi muhim yo'li bu ta'lim va madaniyatni uyg'unlashtirishdir. Bundan tashqari, talabalar uchun teatrlarga tashrifni osonlashtirish maqsadida maxsus chegirmalar tizimini yo'lga qo'yish muhimdir. Moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi ko'plab yoshlarning madaniy tadbirlarda ishtirok etishiga to'siq

samarali usullardan biridir. Yoshlarning sevimli aktyorlari, bastakorlari yoki qo'shiqchilari bilan yaqindan muloqot qilish, ularning ijodiy jarayonlari haqida bilish yoshlarga ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu orqali talabalar o'zlarining qiziqishlarini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ham teatrlarni talabalar orasida targ'ib qilishda muhim vositadir. Spektakllarning qisqa videolavhalarini, konsert dasturlaridan yodgorlik sahnalarini ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilish yoshlarning qiziqishini oshiradi. Onlayn spektakllar va jonli efrilarni tashkil etish esa, san'atning kengroq ommaga yetib borishiga xizmat qiladi.

Shuni unutmaslik kerakki, talabalik davri faqat bilim olish bilan cheklanib qolmay, balki ma'naviy va madaniy o'sish, dunyoqarashni kengaytirish, insoniylik fazilatlarini shakllantirish davri hisoblanib, teatrlarga e'tibor kuchaytirish orqali biz nafaqat san'atni sevuvchi, balki uni chuqur tushunadigan, estetik didga ega bo'lgan modern kadr bo'lib yetishamiz. Madaniyat va san'atni qadrlash – insoniyatni yuksaklikka ko'taradigan asosiy qadriyatlardan biridir. Rus teatri rejissyori, aktyor, o'qituvchi, nazariyotchi, teatr islohotchisi Konstantin Sergeevich Stanislavskiy "San'at hayotning aksi va bilimidir. Hayotni bilmay turib, uni yarata olmaysiz!", deb ta'kidlagan. Zero, madaniyati rivojlangan jamiyatda kelajak avlodning ma'naviy poydevori mustahkam bo'ladi.

JAMIYATDA AYOLLAR XAVFSIZLIGI VA TENG HUQUQLILIGINI TA'MINLASH

Ayollar huquq va erkinliklarining ta'minlanganligi bu huquqiy davlatning bir belgisidir. Ayollar shaxsiy huquqlaridan to'laqonli foydalanishi va davlat tomonidan himoyalaniishi muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Qadimda yashab ijod etgan faylasuflar ham ayollar huquqi dolzarb masalalardan biri ekanligi haqida ilk nazariyalarni ilgari surishgan.

Darhaqiqat, qadim yunon olimlari Suqrot, Arastu, Aflotun, Antifontlar o'z nazariyalarida yaxshi davlat sifatida jamiyatda tenglik va adolat hukm surgan polisni nazarda tutishgan. Erkak va ayollar teng huquqliligi g'oyasini yunon olimi Antifont o'z asarlarida qo'llagan holda: "Tabiat barchani: ayollarni ham, erkaklarni ham teng qilib yaratadi, lekin odamlar insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlarni ishlab chiqishadi", deb ta'kidlagan. Shuningdek, sharq qomusiy olimlardan Abu Nasr Forobiy ham "Fozil odamlar shahri" asarida tenglik hukm surgan davlatni fozillikka intilgan davlat sifatida qayd etgan bo'lsa, 1791-yilda Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyasida, ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan.

Xotin-qizlarning bilim olishi, jamiyatdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishi, o'z sohasi va imkoniyati darajasida shaxs sifatida rivojlanishi, shuning bilan bir qatorda jismoniy va ruhiy zo'ravonliklardan o'z huquqlari orqali himoyalaniishi mumkin. Ammo bunday huquq va daxlsizlik, erkinliklar barcha davlatlarda ham butkul amalga oshirilmayotgani achinarli hol.

O'zbekiston Respublikasida ayollar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'plab ijtimoiy-siyosiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Gender tengligi – bu erkaklar va ayollarning hamda jamiyatdagi barcha jins vakillarining huquq, imkoniyat va majburiyatlar nuqtayi nazaridan teng bo'lishidir. Bu nafaqat qonun oldida tenglikni, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy

sohalarda ham adolatli imkoniyatlar yaratilishini anglatadi. "Gender" atamasi 1968-yilda amerikalik psixolog olim Stoller tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan bo'lib, "jins" ma'nosini bildiradi". Bu xususda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining X bobi 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, yurtimizda ilm olishga intilgan, o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan, turli sohalarida o'z g'oyalarni amalga oshirishni maqsad qilgan ayollarga imkoniyatlar ochib berildi. Bunda kredit olishda, yer ajratilishi va shu kabi masalalarda ham qo'llab-quvvatlanadi. Xotin-qizlarni oliy ma'lumotli bo'lishida amaliy yordam ko'rsatish hamda malakali mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ham ko'plab qaror va farmonlar ishlab chiqilgan. Ushbu farmonlar doirasida talabalikka tavsiya etilgan va o'qishlari uchun sharoiti bo'lmagan taqdirda, ularga foizsiz talaba kreditlari ajratildi. Hatto ish bilan ham ta'minlandi. Magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim jarayonini davom ettirish istagida bo'lgan ayollarga o'qish mablag'lari ham qo'llab berildi.

Bundan tashqari, ayollar salomatligi – bu sog'lom jamiyat qurish, barkamol avlod tarbiyalashda juda muhim o'rin tutadi. Shu bois, xotin-qizlar salomatligi yuqori o'rinda desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ruhiy charchash, stress, turli xil kasalliklarga moyil bo'lgan ayollarni ro'yxatga olish va oylik, yillik ko'riklardan muntazam foydalanishini ta'minlashni



Gulsevar ERGASHEVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati"
ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

yo'lga qo'yish, sog'lom ayollarni ham yilda ikki marta malakali tibbiy ko'rikdan o'tishlari nazoratga olinadi. Ayollar sog'ligi va ijtimoiy yashash tarzini yaxshilash, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada nafaqat yurtimizda, balki jahon miqyosida ham ko'plab siyosiy jarayonlar kechmoqda.

Ayol bu har bir jamiyatni ma'naviy qiyofasini shakllantiradigan, yosh avlodni komillik sari yetaklaydigan, atrof-muhitga ilm-ma'rifat ulashadigan charog'on yulduzdir. U qayerda bo'lmasin, atrofdagilarni ilmga, ezgulikka va rivojlanishga undaydi. Tarixga nazar tashlasak, ko'plab buyuk ayollar ilm-fan, adabiyot va san'atda o'z o'rniga ega bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar. Shunday ekan, jamiyatda ayol mavqeini belgilanishi adolatli davlatning bir belgisidir.

QO'SHIQLARI BOQIYLIKKA DAXLDOR

O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi, yuzlab mashhur qo'shiqlar muallifi, o'nlab pyesalari respublika teatrlarida sahnalashtirilgan, ko'plab kitoblar yozib, o'zidan katta ma'naviy meros qoldirgan Po'lat Mo'minning farzandi, filolog Tabassum Mo'minova bilan bo'lgan suhbatimiz, xalqimizning to'ylarida, yaxshi kunlarida hanuzgacha qo'shiqlari sevib kuylanayotgan shoir va adib haqidagi xotiralar bilan bog'liq bo'ldi...

– Po'lat Mo'minning darsliklardagi ko'plab she'rlarini yod olib, asarlari va ertaklarini o'qib, qo'shiqlarini tinglab ulg'ayganmiz va ular bizni ma'lum ma'noda she'riyat va adabiyot olamiga olib kirgan. Ular bugun ham hofizlar tomonidan sevib kuylanmoqda. Shunday ulug' insonning farzandi bo'lish katta baxt, shunday emasmi?

– Darhaqiqat men baxtli farzandman. Ilm-ma'rifatli, el e'tiboridagi insonlarning farzandi ekanligimdan faxrlanam. Ota-onamiz bilan bog'liq xotiralar qalbimizda abadiy qolaverar ekan. Ertaga farzandlaringiz xotirasida qolish uchun bugun ularning hayotida bo'lishingiz kerak.

Dadam hayotimizning deyarli har bir lahzasida biz farzandlari bilan birga edilar. Bolaligimiz Chilonzorda, ijodkorlarga berilgan uyda o'tgan. Bu yerda ijod ahli oilalari bilan hamfikir, hamnafas bo'lib yashaganmiz. O'sha adabiy muhit hozirgacha meni tark etmagan, desam xato qilmayman.

– Bolaligingizning yorqin sahifalarida padari buzrukvingizning surat va siyrati ko'z oldingizda qanday gavdalanadi?

– "Surat go'zal bo'lishi ko'zni quvontiradi, siyrat go'zal bo'lishi esa, qalbni mamnun qiladi". Albatta, surat va siyrat insonga nisbatan tashqi va ichki xususiyatlarni ifodalovchi ikki muhim tushunchadir. Ular odatda bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonning jismoniy va ma'naviy qirralarini ifodalay ekan, men adamda doimo shu ikki

xislatni o'zaro uyg'unlikda ko'rardim. Dadam yumshoq tabiatli, lekin kezi kelganda qat'iyatli, mehribon, nihoyatda kamtar, ma'naviy pok, oddiy va samimiy, o'rni kelganda hazilkash inson bo'lib, o'ziga bino qo'yish va kibrdan yiroq bo'lganlar.

Albatta, shoirning tashqi ko'rinishi uning ijodiga mos bo'lishi lozim. Masalan, ular ijodiy uchrashuvlarga o'ziga xos libos tanlay olardilar. Ichki va tashqi madaniyatning uyg'un bo'lishini qadrlardilar. Inson nafaqat ma'naviy, balki tashqi jihatdan ham go'zal bo'lishi kerak, derdilar.

*Go'zallikdan ajib sehr yog'adur,
Avvalo ko'z, keyin ko'ngil og'adur.
fardlari fikrimga dalil bo'la oladi.*

Dadam tabiat, odob, muomala va liboslarning go'zalligiga shaydo edilar, didlari juda baland edi. Tabiat go'zalligiga ham katta e'tibor berar, zaminni yaxshi ko'rar edilar. Har yili erta bahordanoq hovlimizdagi bir parcha yerga rayhonning turli navlarini, turfa gul ko'chatlarini olib kelib ekar edilar. Hovlimiz gulzorga aylanib, fayzli bo'lib ketardi.

– Shoirning bolalar haqida ko'p va xo'p yozgani uning bolalarni yaxshi ko'rgani va ularga xos odatlarni yaxshi bilganidanmi?

– Uyimiz 169-maktabning yonginasida joylashgan bo'lib, tanaffusga chalingan qo'ng'iroq ham, bolalarning shovqin-suroni ham hovlimizga eshitilib turardi. Ko'pincha dadam ko'chaga chiqib, bolalarni kuzatar, tanimasa ham gapga tutardilar. Mazkur

savolingizga otamning bir voqea asosida yozgan she'ri orqali javob berishni joiz deb bildim:

"Men Ustoz G'afur G'ulom nomli maktab yonida istiqomat qilaman. Bir og'aynim menga achinib: "Bolalar shovqini rosa quloq-miyangni yesa kerag-ov, ayniqsa, ularning to'poloni?" deb qolsa bo'ladimi?! Men unga aksini aytsam, taajjublandi, xolos. Keyin she'r yozdim:

*To'g'ri, hovlimning yoni —
Maktab, uning maydoni.
Bu yer — bolalar koni
Bilmayman, senga qanday?
Menga yoqadi qanday..."*

Haqiqatdan adam bolalarni qanday yaxshi ko'rar, ular bilan bola bo'lib, bola tilida gaplasha olardilar.

– Ota-onangizdan olgan ma'naviy saboqlaringiz umr yo'llaringizda nechog'lik ibrat bo'lgan?

– O'zbek oilasida mehrning ildizi otada, muhabbatning mevasi esa onada, deb bilaman. Biz ota mehrini, ona muhabbatini his etib yashaganmiz, ularning hayot tarzi, mehri, sabri va o'zaro bir-birlariga bo'lgan munsabatlari bizga ibrat bo'lgan. Onam – hayoti davomida dadamning ijod qilishlari uchun doimo sharoit yaratib, adabiyotga ham ixlosmand bo'lib, o'qimagan bo'lsa-da uqqan ayol edilar. Ota-onam birgalikda badiiy



asarlarni, qo'shiqlarni tahlil qilishganini ko'p ko'rganman. Ular o'rtasida doimo hamnafaslik bo'lgan.

– Shoir qaysi fazilatlari bilan o'zgalardan ajralib turardi?

– Dadam uchun hayotiy mezonlardan biri – kamtarlik edi. Bizga ham manmansiramalik, maqtanchoq bo'lmaslik haqida ko'p gapirardilar. Bir kuni ular taksiga o'tirib, uyimiz manzilini aytibdilar. Haydovchi ko'chamizga qayrilganda "Bilasizmi, shu ko'chada Po'lat Mo'min degan shoir yashaydi, deb eshitgandim", debdi. Otam miyig'ida kulib, bo'lsa bordur, debdilaru, o'zlarini tanitishga imyanibdilar.

Dadajonimning kamtarligini hamkasblari ham ta'kidlar edilar. "Dangasalik zangga o'xshaydi, narsalar ko'p ishlash oqibatida emas, zangdan tezroq yemiriladi", derdilar. Shuning uchun doimo harakatda, ijodda bo'lganlar.

– Oilada qanday o'zbekona qadriyatlarga amal qilinar va qanday qoida, tartib-intizom mavjud edi?

– Biz o'zbekona oilada tarbiyalanganmiz: o'zbek maktablarida o'qidik, odob-axloqimiz ham o'zbekona, ya'ni kattalarga hurmat, kichiklarga izzat bilan qarash, ota-ona oldida past ovozda gapirish... Oilamiz mehmondo'st, kelgan mehmon albatta ovqat yemasdan jo'natilmas edi... Oilamizning yana bir qadriyati bor edi. Hovlimizda tut daraxti bo'lardi. Dadamning bag'ri kengligidan shu birgina tut mevasi bilan butun mahallani to'ydirardi.

Albatta, tartib-intizom bo'lgan oilada tinchlik va farovonlik bo'ladi. Shu ma'noda oilamizda dadamning gaplari qonun edi, gap qaytarmas edik. Bolaligimizda har birimizning o'z bajaradigan vazifalarimiz bo'lardi: menga hovli supurish, uy tozalash, akam va ukamga esa yer chopish, ekinlarni sug'orish kabi uy yumushlari va albatta, a'lo o'qish va **5-bet** ➔



darslarni o'z vaqtida tayyorlashimiz talab qilinardi.

– Yozuvchida mehr-oqibat tuyg'usi qay darajada edi?

– Dadam ota-onalariga juda mehribon bo'lganlar. Hayotlarining oxirgi yillarida deyarli har kuni kechqurun ko'chamizning to'g'risidagi bir uy-chada mahallaning turli toifadagi kishilari bilan shaxmat o'ynardilar. “Yutdingizmi?” deb so'rasak, kulib, “Yutsam ham, yutqazsam ham, oddiy odamlar bilan mazza qilib o'tiraman, hayotni o'rganaman,” der edilar. Otam do'stlarini ham juda qadrlardilar:

*Do'stni avval sinaydilar,
Keyin esa sanaydilar.*

Ushbu misralarining naqadar to'g'riligiga hayotim davomida ko'p marotaba guvoh bo'lganman.

– Anvar Obidjon e'tirof etganidek, “Tarbiya muallimi”ning ilhom parisi borasida gaplashsak. Ustoz ko'proq nimalardan ilhomlanar edi? Tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lgan qaysi asarlarining yaratilishiga guvoh bo'lgansiz?

– Bolalar uchun yozilgan she'rlar nafaqat ularni zavqlantiruvchi badiiy asar, balki samarali tarbiya vositasidir. Ular orqali bolalar odob-axloq, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijodiy fikrlash va o'zini ifoda qilish qobiliyatini rivojlantiradilar. Bunday she'rlar bolalarga yoqimli o'yindek ta'sir qilib, ularning bilim olish va tarbiya jarayonini yengillashtiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, dadam bizlarni o'z yozgan she'rlari orqali tarbiyalardilar.

– Bugungi kunda ham siz va ukangiz Ozod Mo'minxo'ja sa'y-harakati tufayli shoirning asarlari qayta chop etilyapti, do'stlarining xotiralari o'quvchilarga taqdim etilyapti. Bu ham ijodkorning saodati. Shunday emasmi?

– “O'limingizdan so'ng unutilishni istamasangiz, o'qishga arziydigan kitob yozing yoki yozishga arziydigan biror ish qiling”. Dadam, Bendjamin Franklin aytganidek, o'qishga arziydigan ijodiy meros qoldirish barobarida, yozishga arziydigan ishlar ham qilganlar. Ijodkorning baxti uning asarlarida, qoldirgan merosining dunyo va odamlar hayotiga ijobiy ta'siridadir. Ijodkor yashashdan to'xtagan bo'lsa-da, uning ruhiy olami va ijodiy izlanishlari davom etadi. Bu – vaqt va makon chegaralaridan yuqori bo'lgan ma'naviy boqiylik, haqiqiy saodatdir. Chunki, birgina samimiy she'r, hikoya yoki qo'shiq odamlarning hayotini o'zgartirishi, ularga darddan forig' bo'lish yoki taskin topish imkonini berishi mumkin. Inson hayotga nima uchun kelganligini, o'ziga qanday vazifalar yuklatilganligini his qilgan holda hayot kechirishi – bu hayot kalitini topa olish degani. Otajonim ham shunday saodatga ega bo'lgan insonlardan edilar. Shuning uchun bo'lsa kerak ijod namunalari hozirgacha yodga olinadi.

– Bugungi kunda el sevgan shoirning nevara-chevaralari ham kamolga yetayapti. Ularning

ustoz ijodiga, umuman adabiyotga munosabatlari qanday?

– Akam Ozod Mo'minxo'ja fizik olim bo'lsa-da, hayotini ijod bilan bog'ladi. Uning fantastik janrdagi hikoyalari, detektiv janridagi qissalari, tarixiy mavzudagi risolalari kitobxonlarga yaxshi tanish. Katta qizim Shahina Po'latova San-Fransiskoda istiqomat qiladi. U dadajonimning 100 yilligiga bag'ishlab, “Umr vaqtincha” she'rini ingliz tiliga tarjima qildi. Hatto uning ingliz va o'zbek tilidagi qo'shiq variantlarini ham yaratdi. Shahinaxonda otamdan meros ijodkorlikni sezaman. U bobosining boshqa she'rlarini ham tarjima qilib, to'plam qilish niyatida. Hozir yozayotgan matematikaga oid darslikka ham ijodkorlik bilan yondashayotganini sezaman. Dadajonim bizga doimo harakatda, izlanishda bo'lish, vaqtni behuda sarflamaslik kerakligini ta'kidlagan holda, umrlarining so'nggi kunlarigacha o'zlari ijod bilan shug'ullandilar:

*Ikki narsa sotilmas faqat,
Bittasi vaqt, ikkinchisi baxt.*

Yuqoridagi misralari to'laonli o'zlarining hayot yo'llariga taalluqli. Chunki padari buzrukvorim vaqtdan unumli foydalana olgan, vaqtlarini behuda sarflamaslikka intilgan holda haqiqiy oilaviy va ijodiy baxtga erisha olgan, sotib olib bo'lmaydigan narsalarga ega bo'lgan inson edilar. Haqiqiy ijodkorlar vafot etgandan keyin ham adabiy merosi bilan kelgusi avlod hayotiga saboq bo'la olar ekan. Dadajonim Po'lat Mo'min ham ana shunday odamlar sirasiga kiradi. Zero, bolalar uchun yaratgan she'rlari hozirgi kungacha maktab darsliklaridan o'rin olib, ularning ma'naviyatiga, tarbiyasiga hissa qo'shib kelayapti.

Darhaqiqat,

“Yor uyiga kelinposhsha ibo bilan kelibdi,

Kuyov to'ra yuragiga shifo bilan kelibdi.

Asta-asta qadam bosar, qutlug' bo'lsin qadamlar,

Hayo bilan xirom aylab, humo bilan kelibdi” qo'shig'i barcha o'zbek to'ylarida yangraydi. “Ustoz va murabbiylar” kuniga bag'ishlangan har bir tadbir esa:

“Mehr nuri yog'ar doim yuzingizdan, ustozlar,

Yursam deyman, bu tabbarruk izingizdan, ustozlar.

Chin insonlik kitobiga baxtu hikmat bitibsiz,

Odob ila bilim oldim so'zingizdan, ustozlar” qo'shig'i bilan boshlanadi.

“Men sevaman, sen sevasanmi”, “Uzma do'stlik torini bog'lash qiyin...” kabi qo'shiqlari barchamizga birdek yod bo'lib ketgan.

“Ey go'zal, noming na deb, berdim savol indamadi,

Mahliyo etdi tamom oftobjamol indamadi”,

satrlari esa, qulog'imizga qo'shiq bo'lib quyulgan. Bunday she'r va qo'shiqlar yashar ekan, demak, el sevgan adib va shoirning o'zi ham barhayot!

Saodat MATYOQUB qizi,
“Ijodiy parvoz” uchun maxsus



Yurakka ko'milar asl shoirlar

◀ Boshlanishi 1- betda

Shoir o'zining sermahsul ijodi davomida xalqparvar va samimiy she'rlari bilan tanilgan. 2001-yilda vafot etgan bo'lsa-da, uning ijodi hanuzgacha o'zbek xalqi orasida katta hurmat bilan tilga olinadi.

Muhammad Yusufning ilmiy-ijodi o'zbek milliy ruhiyatini xalqning orzu-umidlari va hayotga bo'lgan qarashlarini aks ettirishi bilan ajralib turadi. Uning she'riyati quyidagi asosiy xususiyatlari bilan e'tiborga loyiqdir:

- vatanparvarlik mavzusi – Muhammad Yusuf o'z she'rlarida Vatanni ulug'lash, uning taqdiri, kelajagi va xalq farovonligi haqida ko'p yozgan. “Vatanim”, “O'zbekiston” kabi she'rlari xalq orasida juda mashhur.

- xalqona ruh va soddalik – shoirning she'riyati murakkab obraz va ramzlardan ko'ra, oddiy xalq tushunadigan sodd va ravon tilda yozilgan. U xalqona ohang va shakllardan foydalangan holda o'z asarlarini yaratgan.

- muhabbat va insoniylik – Muhammad Yusufning she'rlari insoniy tuyg'ular, muhabbat, sadoqat, do'stlik va mehr bilan sug'orilgan. U inson qalbini ochib beruvchi samimiy satrlar yozgan.

- folklor va xalq ijodiyoti ta'siri – shoir o'z asarlarida xalq maqollari, iboralaridan keng foydalangan. Bu esa, uning she'riyatiga milliy ruh bag'ishlagan.

Muhammad Yusufning ijodi nafaqat badiiy qiymatga, balki ilmiy-adabiy ahamiyatga ham ega. Uning asarlari adabiyotshunoslar tomonidan chuqur o'rganilib, o'zbek she'riyatida yangi yo'nalishlar yaratishda muhim rol o'ynagan. Bugungi kunda ham uning she'rlari qo'shiqlarga aylanib, keng ommaga tarqalmoqda. Muhammad Yusuf o'zbek milliy adabiyotiga katta hissa qo'shgan ijodkorlardan biri bo'lib, uning asarlari kelajak avlodlar uchun muhim adabiy meros bo'lib qolmoqda. Muhammad Yusuf ijodida milliy qadriyatlar ona Vatan muhabbat, ona tili va insoniy tuyg'ular xalq qalbiga yaqin bo'lib, jamiyatning turli qatlamlariga tez tarqalgan.

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,

Qumlar bosib qurimasin daryolarim.

Alpomishga alla aytgan mo'molarim,

Ruhini shod etay desang – xalq bo'l, elim!

Asl shoir kim? Shoirlikning faqat so'z o'yinidan iborat emas, balki jamiyatga ta'sir qiluvchi kuch sifatida qarab, o'z davrining yuragi, xalqining dardini ifodalovchi shaxs bo'lib, ijodi avlodlar uchun ma'naviy meros bo'lib qolishiga xizmat qilgan ijodkordir. Asl shoir xalqqa yaqin bo'lishi, uning dardi, quvonchlarini ifodalashi adolat, haqiqat, vatanparvarlik, muhabbat kabi mavzularga murojaat qilishida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Uning she'rlarini yod olar ekanman, hayotning go'zalligi, qiyinchiliklarni kurashib yengish va har bir damni qadriga yetish haqida fikr va mulohazlar qilaman. Shoirning she'rlarida samimiy hissiyotlar insonning qalbidan chiqishi bilan his tuyg'ularni ochiqcha ifodlashga xizmat qiladi.

Muhammad Yusufning she'rlari shunchaki vatanparvarlikka da'vat etish emas, balki ichki kechinmalar, insoniy g'urur va mehr-muhabbatni aks ettiruvchi chinakam samimiy satrlardir. U har bir o'zbekning yuragiga yaqin, chunki oddiy xalq tushunadigan tilda yozilgan va xalqning dardi, tuyg'ularini aks ettirganligi bilan ajralib turadi.

Muhammad Yusuf ko'krak nishoni bilan taqdirlanar ekanman, bolaligimdan she'riyatga muhabbat qo'yishimga sababchi bo'lgan ustozim hamda onajonimga rahmat aytaman. Yosh bo'lishimga qaramay, ko'proq she'r aytishni va yodlashni odat qildim. Men 7-8 yoshligimda, onam “Xalq ta'limi a'lochisi” nomli ko'krak nishonini qo'lga kiritganida, juda havas qilgan edim. Har kuni maktabga ketgunimcha, ko'zgu yonida onamning ko'krak nishonini taqib ko'rib, katta bo'lsam onamga o'xshashni orzu qilardim. Yillar o'tib, she'riyatga oshnoligim hamda harakatlarim natijasida, ushbu ko'krak nishonini qo'lga kiritdim. Taqdirlash marosimida o'zgacha hayajon bilan o'tirdim.

Sevimli shoirimizning rafiqasi Nazira as-Salom hamda Iqbol Mirzo menga Muhammad Yusuf nomidagi ko'krak nishonini taqib qo'yidilar. Ijodkor talaba uchun bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak...



OZODBEK ORIPOV,
ASHULA VA RAQS TA'LIM YO'NALISHI
2-BOSQICH TALABASI



O'zbek askari

*Buyuk o'zbek askari, el parvarlari,
Buyuk bobolarni bir avlodlari,
Prezidentimiz ishongan, bir o'g'lonlari,
Biz o'zbek askari, o'zbek askari.*

*Hamisha bardammiz, baquvvat askar,
Yurt uchun qalqonmiz-qalqonmiz bizlar,
Yurt boshimiz ishongan bizlarga har dam,
Biz o'zbek askari, o'zbek askari.*

*Vatan deb askarlar, doim qayg'urgan,
Xalqini tinchligin, har vaqt o'ylagan,
Ona tuprog'ini himoya qilgan,
Biz o'zbek askari, o'zbek askari.*



Yuzsiz odamlar

*Ilhom kelar, yozar qalamlar,
Bosgan izi xato qadamlar,
Yana bir she'r yozyapman sizga,
Yuzi bor, lek yuzsiz odamlar.*

*Yomon ishda shayton aybdor,
Gunoh qilgan o'zingsan axir,
Qolmadiku g'urur, nomus, or,
Eh, odamzod faqirsan faqir.*

*Qizlarda-chi qolmadi nomus,
Qiyomat ham yaqin bu damlar,
Bu xatolar to'xtamas hanuz,
Yuzi bor, lek yuzsiz odamlar.*

*Ota boshin ko'tarolmaydi,
Bir behayo qizni dastidan,
Kechirilmas xatoni qilib,
Qiz o'zini osar qasdidan.*

*O'gilda ham gurur qolmagan,
Qariyalar uyida ota,
Bir xotinni eplay olmagan,
Ota bo'ldi unga qaynota.*

*Ko'zingni och endi birodar,
Savob ishga bosgin qadamlar,
Bu so'zlarim befoyda balki,
Yuzi bor, lek yuzsiz odamlar.*



SHOXRUX
MUXITDINOV,
FOLKLOR VA ETNOGRAFIYA
TA'LIM YO'NALISHI
1-BOSQICH TALABASI

NILUFAR DO'STOVA,
"KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI"
TA'LIM YO'NALISHI
1-BOSQICH TALABASI



Yurt ishq

*Bu yerlarning shomlari sokin,
Nurli erur otgan tonglari.
Bu o'lkaning pirjari boqiy,
Baxtga to'la urgan bonglari.*

*Bu yerlarning minorlari bor,
Aylar hatto laylaklar makon.
Boshga qo'nar humolari bor,
Tinchlik sevar yurtim farovon.*

*Serquyosh o'lka bu har nedan ortiq,
Qaddidanda qadri balandloq.
Bolasi uchun joni ham tortiq,
Yurt bormikan bundanda ortiq?*

*Momolarning yuzida quvonch,
Bobolarning kalomi shirin.
Har bir boqqan ko'zlarda ishonch,
Farzandlari sotmaydi sirin.*

*Uzoqlashsam mehning tortadi,
Gul diyorim jonimga darmon.
Ko'rmasam gar sog'inch ortadi,
Senga yuksak qalbimda ishonch.*



G'OLIB MELIBOYEV,
"MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI
MENEJMENTI" TA'LIM YO'NALISHI
3-BOSQICH TALABASI

O'zbekistonim

*Faqat o'zimni o'ylasam, kerakdir jonim,
Unda bu jon ne kerak ey mehribonim?
Farzandlarin o'ylagan bir sengina,
Dunyoda yagona, O'zbekistonim!*

*Kimdir bor yurtiga bo'lar devona,
Kimdir bor mol mulkiga parvona.
Sensan axir shu xalqingga oshyona,
Dunyoda yagona, O'zbekistonim!*

*Mashxurdir qancha-qancha ellar,
Lekin senga guvohdir o'tmish yillar.
Ular qachon boshing silab bolam derlar?
Bolajonsan yagona, O'zbekistonim!*



Unutaman seni

*Bo'ldi, endi hammasi tamom,
Tashlab ketding, axir ne uchun?
Endi seni unutdim, ishon,
Qizig'ing ham yo'qdir men uchun.*

*Xayollarga ko'p ham berilib,
Yuragimni o'tda yoqibman,
Sen yurasan doimo kulib,
Men ko'nglim sovib yotibman.*

*Unutaman, bo'ldi seni bas,
Yetar shuncha azob chekkanim,
Samolardan keldi menga sas,
Kingadir bor ekan yoqqanim.*

*Bu dunyoda bitta zo'r gap bor:
Sen kimga zor, senga kimlar zor?
Muhabbatim etgansan sen xor,
Endi seni yetaklar kimlar?*

*Seni o'ylab o'tganda kunim,
Sevmasang ham, sevar deb kutdim,
Sevgimni rad etganda, gulim,
Men o'zimni butkul unutdim.*

*Ko'nglingni ko'p cho'ktirma, Dilbek,
Baxting seni bir kuni kular,
Omad senga boqqanda, yeldek,
Ketganlarning o'zlari kelar.*



DILBEK ERGASHEV,
MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARI
FAOLIYATINI TASHKIL
ETISH HAMDA
BOSHQARISH TA'LIM
YO'NALISHI 3-BOSQICH
TALABASI

MILLIY QADRIYATLARNING TARIXIY VA FALSAFIY ILDIZLARI

O'zbekiston – bebaho qadriyatlari bilan azaldan olamni o'ziga maftun etib kelgan munavvar, go'zal diyor. Qadriyat – bir xalq ichida emas, barcha xalqlar tomonidan e'tirof etilsa, oliy maqom kasb etadi. Zaminimizda yashovchi xalqlarga mansub katta-yu kichikka birdek salom berish, keksalarni e'zozlash, qo'shnilariga hurmat, qarindoshlarga mehr-oqibat, bolajonlik, mehmondo'stlik kabi fazilatlar asrlar davomida jahon tamadduni sahifalariga zarhal harflar bilan bitilgan.

Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekistonda katta-yu kichikka ko'rsatilgan mislsiz mehr oqibat tillarda doston bo'lgan. Bizning mehribon xalqimiz urush oqibatida yetim qolganlarni bag'riga bosib, ular bilan o'z rizqini baham ko'rib, minglab insonlarning hayotidagi munosib o'rnini saqlab kelmoqda. Bunday qadriyatlar imyon, e'tiqod, vijdon, diyonat, ma'naviyat kabi o'lmas va yelgilmas tuyg'ular samarasidir. Qadriyatlar oliy darajadagi odob-axloq, bilim va ma'rifatning asosi bo'lib, unda jahon tamadduni taraqqiyotiga bemisl ulush qo'shgan an'analar hosilasi mujassam.

Qadimdan yurtimizda ulug'langan qadriyatlardan biri "kattaga hurmat, kichikka izzat"dir. Har bir imyonli inson yoshi ulug'larni e'zozlashi, kichiklarga o'rnak bo'lishi, davlat va jamiyat qonun-qoidalariga amal qilishi o'ta muhimdir. Bu qadriyatlar imyon, e'tiqod, vijdon, diyonat ma'naviyat kabi o'lmas va yelgilmas tuyg'ular samarasidir. Bu qadriyatlar oliy darajadagi odob-axloq, bilim va ma'rifatning asosidir. Ta'kidlash joizki, milliy va diniy qadriyatlarimiz o'zaro chambarchas bog'lanib ketgani, ularni bir-biridan ajratish mushkuldir. Ayniqsa, ko'p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma'nosini anglash, milliy madaniyat, turmush tarzimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an'analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo'lib kelayotgani alohida e'tiborga molikdir. Zero, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiragini o'ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo'lgan fazilatlar aynan ana shu zaminda ildiz otadi va rivojlanadi. O'zini imyonli deb hisoblovchi har bir inson atrofdagilarga faqat ezgulik ulashib, kishilarga ozor beradigan ishlarning barchasidan o'zini tiyishi lozim.

Milliy qadriyatlarimizdan yana biri halollik hisoblanadi. Buyuk bobokalonimiz Bahouddin Naqshbandning "Ibodati o'n qism bo'lsa, shundan to'qqiz qismi halollikni talab qilish, qolgan bir qismi boshqa ibodatlardir", degan o'g'itlari halollik maqomi qanchalar yuksak ekanini ko'rsatib beradi. Halollik har tomonlama poklikni ifodalaydi. Shu o'rinda Alisher Navoiyning o'g'itlari yodga keldi. Buyuk mutafakkir barkamollik namunasi bo'lgan Farhodni tavsiflab:

*"Demangkim, ko'zi poku ham so'zi pok,
Dili poku, tili poku ham o'zi pok".*

Halollikning eng muhim jihatlaridan biri o'g'rilik, poraxo'rlik, firibgarlik, davlat mulkini talon-taroj qilish kabi kishilar mulkiga tajovuz va xiyonat qilishdan tiyilish sanaladi. Halollikning muhimligidan, unga olib boruvchi vositalarning barchasi, ayniqsa, mehnat qilish, kasb-hunar bilan shug'ullanish ham islomiy qadriyatlar orasida alohida o'rin tutadi. Kishilar haqqiga ko'z olaytirish, ta'magirlik muqaddas dinimizda qoralanadi. Hadisi sharifda "Inson o'z qo'li bilan ishlab topgan luqmasidan shirinroq ne'mat yo'q", ekanligi ta'kidlangan.

Xalqimiz mehmondo'stligi olamga mashhur. Dunyoda o'zidan-da mehmonini izzat qiladigan millatlardan biri. O'zbek xonadonlarida hamisha to'satdan kelib qoladigan mehmon uchun zaxira hozirlangan. Agar unday imkon bo'lmasa, qo'shnidan yordam olib bo'lsa-da mehmonga taom hozirlangan. Bu esa mehmondo'stlik milliy va diniy qadriyatlar uyg'unligining yorqin ifodasidir.

Qadriyatlar tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'noda turli sohalarda qo'llaniladi. Qadriyatlar to'g'risidagi fan bu – aksiologiyadir. Bu atama ilmiy bilimlar sohasiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida nemis aksiologi E.Gertman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan. G'arbda bu atama grekcha "qadriyat" va "fan", "ta'limot" tushunchalariga asoslanadi. Qadriyatni aksiologik nuqtayi-nazardan talqin qilish, uning kategoriya sifatidagi mazmuni, obyektiv asosi va subyektiv jihatlarini, namoyon bo'lish shakllari va xususiyatlarini o'rganishga imkon beradi.

Qadriyatlar inson bisotida turli ehtiyojlar va his-tuyg'ularning mavjudligidan dalolat beradi, atrofida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni turlicha baholashlari uchun zamin yaratadi. Chunonchi, birovlar uchun o'ta qadrlil, muhim ahamiyatga ega bo'lgan, u yoki bu hodisa, boshqa birovlar uchun qadrsiz, sariq chaqalik ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Shu bois, qadriyatlarni oddiy qilib ijobiy yoki salbiy, absolyut va nisbiy, obyektiv va subyektiv qadriyatlarga bo'lish mumkin. Mazmuniga qarab mantiqiy, etnik, estetik va narsalar qadriyatlariga bo'lish mumkin. Shuningdek, qadriyatlar haqiqat, ezgulik, go'zallikni ulug'lovchi qadriyatlarga ajratish mumkin.

Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotining mahsulidir. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o'sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, talab va ehtiyojlari o'z ifodasini topadi. Zamonlar o'tishi bilan qadriyatlarning mazmuni va ma'nosi o'zgarib boradi.

Sharq mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino qadriyatlar haqida fikr va mulohaza yuritganlarida, eng avvalo, insonning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, xislatlarini, xususiyatlarini, insonning ruhiy va ma'naviy kamoloti uchun yordam beradigan buyuk xazinasini tushunganlar. Milliy qadriyatlar – milliy ma'naviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir. Milliy qadriyatlarining negizini urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayram-u, sayllar tashkil etadi.

O'zbek milliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Milliy qadriyatlar o'sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar, xususiyatlarini milliy-madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rsatkichdir.



Dilorom ABDURAZZOQOVA,
Sirtqi ta'lim shakli
"Kutubxona – axborot faoliyati"
yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Millatimizning o'ziga xos sharqona turmush tarzi, tafakkuri va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatini ifoda etuvchi xalq og'zaki ijodi namunalari, "Alpomish", "Shashmaqom" kabi durdona asarlari, asriy ideallarni o'zida ifoda etgan milliy qahramonlarning ibratli hayoti ham milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbadir. Xalqimizning ertak va masallarda, rivoyat va afsonalarida ezgulik, adolat, tenglik, insoniy mehr-muhabbat tarannum etilgan. Ularda vatanning muqaddasligi, insonning azizligi, ilmning qadrliligi targ'ib qilingan. Hamisha yomonlik ustidan yaxshilik, yovuzlik ustidan ezgulik g'olib chiqishi va yovuz kuchlarga qarshi kurashda halollik, haqq'oylik, odamgarchilik, tantilik, mehr-oqibat kabi oliyjanob fazilatlar ma'naviy-ruhiy tayanch bo'lishi asoslab berilgan. "Alpomish" dostonida inson sha'ni, yigitlik oriyati himoya qilinsa, "Shashmaqom" da xalqning asriy orzu-umidlari yuksak badiiy did bilan kuyga solingan.

Inson sha'ni avvalo, o'zini himoya qilish, o'z qadrlini bilishdan boshlanadi. Shu ma'noda xalqning o'zini qadrlay bilishi g'oyat muhimdir. Zero, o'zini qadrlaydigan xalq hech qachon taqdirini birovga bog'lab qo'ymaydi. O'z qadrlini bilgan odam vataniga xiyonat qilmaydi. Uning qalbidan el-yurtiga xiyonat qiluvchi oriyatsiz kimsalarga nisbatan cheksiz nafrat yashaydi.

Bu muqaddas g'oyalar, millati va e'tiqodidan qat'iy nazar shu zaminda yashayotgan har bir fuqaroning hayotiga, ongiga singmog'i va eng katta tayanch, ishonch, hamda iymonga aylanishi kerak. Muxtasar qilib aytganda, milliy mafkuramizning tarixiy ildizlari deganda, ajdodlarimizning ibratli hayot yo'li, tafakkur tarzi, amaliy faoliyati, bunyodkorlik ishlari, eng yaxshi urf-odatlarini, an'analarini, qadriyatlarini, mustahkam imyon-e'tiqodini fuqarolarimiz uchun namuna bo'lishi, xato, kamchilik, nuqsonlardan esa to'g'ri xulosa chiqarish uchun asos bo'ladi. Har bir millat o'z milliy qadriyatini qanchalik e'zozlasa, uni ko'z qorachig'idek asrasa, shu millatning jahon hamjamiyatidagi o'rni, obro'si, unga ajratiladigan e'tibor, hurmat shu darajada baland bo'ladi.

Temuriylar davridagi cholg'ular tiklanmoqda

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ekspozitsiyasini boyitish borasida respublika bo'ylab ilmiy ekspeditsiya guruhi andijonlik mohir sozgar Abdumalik Madraimov ustaxonasida bo'lib, sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davriga oid musiqiy cholg'ularning namunalari bilan tanishdilar.

– Tarixda Borbad degan afsonaviy sozanda o'tgan. Miniaturalarda o'sha sozandaning ismi bilan ataladigan cholg'u asbobi, ya'ni Borbad sozi aks etganini uchratib qoldik. Xususan, hazrati Mir Alisher Navoiyning asarlariga chizilgan miniatyuralarda shu cholg'u bor ekan. Unda sozning kosaxonasi yarmi teridan bo'lganligini ko'rdik. Biz esa uni yog'ochdan qildik. Sankt-Peterburgdagi O'rmon sanoati universitetida yog'ochning tebranishini tekshiradigan apparat bor ekan. O'sha yoqqa borib, bir oydan ortiq vaqt davomida yog'ochning tebranishini o'rgandim. Yuzga yaqin daraxtlardan namunalar bor ekan. Ularni o'rganib, tut yog'ochidan yasashga qaror qildik. Juda muvaffaqiyatli chiqdi – deydi Abdumalik Madraimov.

Kamoliddin Behzod miniatyuralarida aks ettirilgan sozlar tasviri ustaning bu sohaga qiziqishini yanada kuchaytirdi. Natijada uzoq yillik mehnati evaziga "G'ijjaki Boburiy", "Dilrabo", "Dilnavo", "Meros", "Xushnavo", "Qo'shtor", "Yangi chang" deb nomlangan ajoyib cholg'u sozlarni kashf qildi.



Manba: ciscuz



Buyuklarni tarbiyalagan buyuk onalar

O'ZBEK XALQI DUNYOGA JUDA KO'P BUYUK
ZOTLARNI YETKAZIB BERGANI BILAN HAM MASHHUR.
ILM-FAN, MADANIYAT VA TARIXDA ULKAN IZ QOLDIRGAN
AJDODLARIMIZNI DUNYOGA KELTIRGAN VA TARBIYALAGAN
ONALARNING O'RNI BEQIYOS.

SITORABONU –

buyuk hakimni dunyoga keltirgan zot

Abu Ali ibn Sinoning asl ismi Husayn bo'lib, otasi Abdulloh va onasi Sitorabonu farzandiga shu nomni ma'qul ko'rishadi va butun dunyoga Ibn Sino nomi bilan mashhur bo'lgan. Onasi Sitorabonu farzandlarining kamol topishida katta ta'sir ko'rsatgan.

TEGINA XOTUN –

Sohibqironga alla aytgan ayol

Amir Temurning onasi Tegin Xotun taniqli din arbobi Ubaydulloh al-Buxoriyning xonadonida tug'ilgan. U pokiza xulqli ayol bo'lib, farzandining buyuk sarkarda va davlat arbobi bo'lib yetishishiga zamin yaratgan.

GAVHARSHODBEGIM – Mirzo Ulug'bekning validasi

Temuriylar saltanatida katta o'rin tutgan Gavharshodbegim 1379-yilda tug'ilgan. Mirzo Ulug'bekning ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor bergan. Uning nomi Xurosonning ko'plab me'moriy obidalari bilan bog'liq.

QUTLUG' NIGORXONIM – Bobur Mirzoning onasi

1459-yilda tug'ilgan Qutlug' Nigorxonim Boburni tarbiyalab, uning davlat ishlarida yaqindan yordam bergan. Umarshayx Mirzo vafotidan keyin ham Boburning yonida bo'lib, uning hayotida muhim o'rin tutgan.

Bugungi kunda ham buyuk insonlarning ortida buyuk onalar turadi. Ular farzandlariga ilm-ma'rifat, jasorat va adolatni ulug'lashni o'rgatib, tarix sahifalarida o'chmas iz qoldirganlar.



ILK O'ZBEK TEATRI AKTRISALARIDAN BIRI – MA'SUMA QORIYEVA

O'zbek teatrining birinchi aktrisasi Ma'suma Qoriyeva 1902-yil Toshkentda tug'ilgan. Uning iqtidorini rejissyor Mannon Uyg'ur kashf etgan va teatrga jalb qilgan. Dastlab Ma'sumaning sahnaga chiqishi tomoshabinlar tomonidan qabul qilinmagan, ammo u o'z mahorati bilan minglab muxlislarni rom etgan. Uning nomi qisqa fursatda tillarda doston bo'lgan.

Abdulhamid Cho'lpon uning iste'dodidan ta'sirlanib, "O'zbek teatri malikasi", deb she'r yozgan. Ma'suma Qoriyevaning qaynotasi Abduvohid qori Abdurauf qori o'g'li Turkistonning atoqli olimi, "Sho'royi islomiya" va "Mahkamai islomiya" jamiyatlari raisi bo'lgan. U Usmon Qur'onini yurtimizga qaytarib olib kelishda faol qatnashgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan bunyod etilayotgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida "Turkiston jadidlarining ma'rifatparvarlik islohotlari" immersiv shousi tashkil etilishi rejalashtirilgan. Unda jadidlar tashkil etgan teatr truppalarining faoliyati va "O'zbek teatri malikasi" – Ma'suma Qoriyeva kabi aktrisalar hayoti ham yoritiladi.

KULGI DARG'ASINI XOTIRLAB

Hamidulla AKBAROV, san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Soyib Xo'jayev bilan yon qo'shni bo'lganim bois suhbatlarida ko'p bo'lganman. Esimda, oilaning boshlig'i sifatida to'ng'ich o'g'li O'tkirjon bilan jiddiy muloqotda bo'lishi, kichikintoy Ma'murjonni esa erkalab, yelkalariga mindirib kulgi uyg'otadigan ashulalarni aytib, "yuk" ostida bo'lishiga qaramay, raqs tushishi barchamizga zavq berardi.

Kulib, quvonib, xuddi tomosha zalida o'tirgandek qarsak chalib yuborardik. Aslida sahnada, kino pavilyonida ham shu tarzda o'ynar, to'g'rirog'i, yashar edi...

Mahallamizdagi to'ylarga ham Soyib qiziq fayz kiritar edi. "Assalomu alaykum", deb eshikdan kirib kelganida, tabrik so'zini ham kuldira-kuldira aytib, darhol "Toshbolta oshiq" spektaklidagi monologini ijro etib, barchaning diqqatini tortardi. Sahnada, kamera yonida o'zini qanday tutsa, to'yxonada ham shunday harakat qilishga intilar, bachkanalikni yoqtirmas edi.

Soyib Xo'jayev xushtabiatti, hamisha tetik, quvnoq kayfiyat bilan yurishi, "Ko'prok kuling, umringiz uzayadi", deb so'z boshlashi, qahqaha darg'asining har bir harakati biz mahalladoshlariga xush yoqardi. Bir kuni ikkimiz tramvay bekati tomon asta ketayotgan edik, Soyib aka menga jiddiy ohangda:

– "Toshbolta oshiq"ni kinoga olmayapsizlar-da! Bir kun kelib: "Soyib Xo'jayev shu rolni unday o'ynagandi, bunday o'ynagandi, deb yurasizlar. Lekin buni namoyish etib berolmaysizlar!" – deb aytganlarini hech yodimdan chiqarmayman.



Soyib akani xonadonlarida, sahnada, kino-ekranda, xalqaro uchrashuvlarda ko'rib, uning ko'plab muxlislari bilan uchrashib, bu aktyor mashhurgina emas, balki sevimli ekanligiga amin bo'lardim. Xorijiy mamlakatlardan birida Soyib Xo'jayev aeroportdan chiqib, to'g'ri uchrashuv bo'ladigan hashamatli bino tomon yo'l olganida, aktyorga yo'l-yo'lakay guldastalar uzatishgani, rang-barang gullarni san'atkor ustidan sochganlari hamon esimda. Shunda kimdir: "Bu san'atkorda o'zbekning samimiyati, quvnoqligi, gapga chechanligi, tetik kayfiyati hamisha ustun turadi. U o'zbekning haqiqiy elchisi", deb baland ovoz bilan gapirganida qarsaklar yangragan, olqishlar avjiga chiqqan edi. Aktyorning xuddi shu fazilatlarini Nabi G'aniyev qadrlagani ham bejiz emas. Xalqimizning tengi yo'q merosini yuksak qadrlagan bu rejissyor o'zining olijanob g'oyalarini aktyor ko'magida millionlarga yetkazmoqchi bo'lgan.

Biz mahalladoshlar to'y va ma'raka kunlari hanuz Soyib Xo'jayevni eslaymiz. U yurgan ko'chalar obod bo'layotganidan, u aytgan monologlarni yangi avlod yod olganidan behad mamnun bo'lamiz...

Bekardagi muhabbat

Roziya RAVSHANBEKOVA, "San'at jurnalistikasi" ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Qorong'i osmonda yulduzlar milt-milt yaltirab turardi. Bekat tinch. Faqat avtobus kutayotgan yo'lovchilarning ovozlari eshitiladi. Yo'l chetidagi chiroqlarning xira nuri yo'l yuzini zo'rg'a yoritadi. Sherzod har kuni mana shu bekatda turib, har xil avtobuslar kelishini kuzatardi. Lekin u avtobusni emas, uning atrofida ko'rinadigan yo'lovchi qizlarni kuzatardi.

Birinchi avtobus keldi. Avtobusdan ko'hlik, uzundan-uzun sochlari yelkasiga yoyilgan, jozibador bir qiz tushdi. Sherzodning yuragi tez-tez ura boshladi. Qizni kuzatdi. U o'z telefoniga mahliyo bo'lib, yonidagi yo'l bo'ylab ketib qoldi...

Ikkinchi avtobus keldi. Undan rang-barang ko'ylak kiygan, jilmayishi bilan butun bekatni yoritgandek tuyulgan boshqa bir qiz tushdi. Sherzod o'ziga o'zi savol berdi:

– Nega yuragim har safar har xil uradi?

Shu tariqa, har bekatga kelgan avtobus, har bir tushgan qiz, Sherzodni yangi bir olamga chorlab, hech bir qizni ortidan qadam tashlay olmasdi. U faqat kuzatib, o'yg'a cho'mardi.

Sherzod oxirgi bekatga yetib keldi. Bu yerda avtobus ham, boshqa yo'lovchilar ham yo'q, faqat yolg'iz o'zi edi. O'sha damda Sherzod o'z hayoti haqida o'ylay boshladi. Har safar boshqa-boshqa go'zallikni ko'rib, yuragi titraganini, lekin oxir-oqibat hech kim bilan bog'lanmaganini anglab yetdi. Balki sevgi – o'zimning bekatimni kutishdir? Shunda, Sherzod tushunib yetdiki: u na avtobuslarni, na yo'lovchilarni qidirayotgan edi. Aslida u o'zini izlayotgan ekan. Har bir bekatda u o'zining bir bo'lagini ko'rib, tanib, nihoyat oxirgi bekatda o'z haqiqati bilan yuzma-yuz keldi. Biz hayotda ko'p narsalarni sevamiz, ko'p odamlarni uchratamiz, lekin haqiqiy sevgi – o'zimizni tushunish va o'zligimizga yetib borishdir. Har bekat – hayotimizdagi bir bosqich, har bir qiz esa, qalbimizning bir bo'lagi, lekin haqiqiy ma'no, o'z bekatimizga yetib kelganda ochiladi...

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti

Bosh muharrir

Baxtiyor YAKUBOV



Tahrir hay'ati:
Hamdam ISMOILOV,
Oybek DAVLATOV
Muharrir:
Dilnoza QURBONOVA
Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Gazeta 1.05.2025-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166
raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda